

“KELISHILDI”
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta‘lim, fan va
innovatsiyalar vaziri
K. Sharipov

26 dekabr 2025 y.

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Bosh vazirining o‘rinbosari,
Iqtisodiyot va moliya vaziri
J. Qo‘chqorov

29 dekabr 2025 y.

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistraturasi to‘g‘risida
NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 904-son, 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son, 2024-yil 13-dekabrdagi “Oliy va kasbiy ta‘lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 836-son qarorlari, “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar” O‘zbekiston Respublikasining davlat standarti va boshqa sohaga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida (keyingi o‘rinlarda – Oliy maktab) magistrlar tayyorlashning asosiy qoidalari va tartibini, umumqabul qilingan xalqaro standartlarga binoan magistraturada yakuniy davlat attestatsiyasidan o‘tishning mezonlari va talablarini belgilaydi.

2. Nizom talablari magistraturaning kunduzgi, sirtqi va muqobil ta‘lim shakllarida tahsil olayotgan barcha magistratura tinglovchilari, ularning ilmiy rahbarlari, professor-o‘qituvchilar, mutasaddi rahbarlar va xodimlar hamda davlat attestatsiya komissiyasi (DAK) a‘zolari uchun majburiy hisoblanadi.

3. Magistratura aniq mutaxassislik bo‘yicha bakalavriat negizida o‘qitish kamida bir yil davom etadigan oliy ta‘lim bo‘lib, uning bitiruvchilariga davlat namunasidagi diplom beriladi.

Magistratura dasturi yakunlanishi tegishli mutaxassislik bo‘yicha “magistr” darajasini beruvchi yakuniy davlat attestatsiyasi hisoblanadi.

4. Tinglovchi yakuniy davlat attestatsiyasiga qadar magistratura mutaxassisligining tasdiqlangan o‘quv rejasidagi barcha o‘quv fanlarini o‘zlashtirgan ilmiy va (yoki) malakaviy amaliyotlarni o‘tagan bo‘lishi hamda to‘lov-kontraktdan qarzdor bo‘lmasligi shart.

2-bob. Magistrlar tayyorlashga qo‘yiladigan talablar

5. Aniq mutaxassislik bo‘yicha magistrlar tayyorlashga qo‘yiladigan talablar oliy ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan magistratura mutaxassisliklari malaka talablari bilan belgilanadi.

Oliy maktab o‘zi tayanch bo‘lgan magistratura mutaxassisliklar bo‘yicha malaka talablari hamda o‘quv rejalarini ishlab chiqadi va belgilangan tartibda tasdiqlanishini ta‘minlaydi.

6. Magistr:

tanlangan mutaxassisligi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va(yoki) kasbiy faoliyatni mustaqil yuritishga;

kasbiy faoliyatda zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalanishga;

oliy ta‘limdan keyingi ta‘limni magistrlik tayyorgarligiga muvofiq mutaxassislik bo‘yicha tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilar institutida davom ettirishga;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida qo‘shimcha kasb ta‘limi olishga tayyorlanadi.

7. Magistr o‘z mutaxassisligi, ilmiy va ilmiy-pedagogik tayyorgarligiga muvofiq kasbiy faoliyatining quyidagi turlari:

biznes va tadbirkorlik;
davlat, nodavlat va xo'jalik organlarida boshqaruv;
ilmiy-tadqiqot va tajriba;
ilmiy-ijodiy;
loyiha-konstruktorlik;
loyiha-texnologik;
ilmiy-pedagogik;
ishlab chiqarish, shuningdek bakalavriat ta'lim yo'nalishiga muvofiq boshqa faoliyat turlari bo'yicha ham shug'ullanishi mumkin.

3-bob. Magistratura tinglovchilarining huquq va majburiyatlari

8. Magistratura tinglovchilari:

ta'lim, fan, madaniyat, texnika, iqtisodiyotni, ijtimoiy va boshqa sohalarni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalariga muvofiq bilimlarni olish;

Oliy maktab faoliyati bilan bog'liq muhim masalalarni ko'rib chiqish va hal qilishda bevosita (yoki o'z vakillari orqali) ishtirok etish;

Oliy maktab axborot-resurs markazlari xizmatlaridan, shu jumladan o'quv adabiyotlardan, shuningdek, Oliy maktabning Nizomida belgilangan tartibda boshqa turdagi xizmatlardan bepul foydalanish;

ilmiy-tadqiqot ishlarida, konferensiyalar va simpoziumlarda ishtirok etish;

o'z ilmiy-tadqiqot ishlarini ilmiy nashrlarda chop etishga taqdim etish;

o'zining biznes yoki startap loyihalari bilan turli xalqaro va respublika anjumanlarida ishtirok etish;

Oliy maktab Ilmiy kengashi tavsiyasiga muvofiq yetakchi xorijiy va respublikadagi korxonalar va tashkilotlarda amaliyot o'tash, stajirovkada bo'lish, davlat attestatsiyasi darajasida himoya qilinadigan biznes-loyiha yoki magistrlik dissertatsiyasining tajriba-sinov qismlarini bajarish uchun ushbu korxonalar va tashkilotlar bilan tegishli kelishuvlar mavjud bo'lganda ularga yo'llanma olish;

magistratura tinglovchisi qonunchilikda yoki Oliy maktab Nizomida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

9. Magistratura tinglovchilarining majburiyatlari:

magistraturaning tegishli mutaxassisligi bo'yicha o'quv rejaları va dasturlarida nazarda tutilgan bilimlarni egallash va o'zlashtirish;

o'quv rejada nazarda tutilgan barcha turdagi topshiriqlarni belgilangan muddatlarda bajarish, shuningdek, magistrlik yakuniy attestatsiyasi ishini, shu jumladan dissertatsiyani tayyorlash va himoya qilish;

Oliy maktabning Nizom talablariga va ichki tartib qoidalariga rioya etish;

magistratura tinglovchisiga qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

4-bob. Magistraturada o'quv jarayonini tashkil etish

10. Magistraturada o'quv jarayoni oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan aniq magistratura mutaxassisligi malaka talablariga muvofiq tashkil etiladi.

Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida videokonferensiya aloqa tizimlari, ta'limni boshqarish platformalari (LMS), virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari (VR/AR), sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar aralash ta'lim (blended learning)dan foydalanish mumkin.

11. Magistraturada o'quv jarayonini tashkil etishga quyidagi talablar qo'yiladi:

Oliy maktabning magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ilmiy-pedagogik kadrlar bilan, shu jumladan kadrlar tayyorlash ixtisosligi va yo'nalishiga mos keluvchi professor-o'qituvchilar bilan ta'minlanganligi;

nazariy, laboratoriya, amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, shu jumladan magistrlik bitiruv ishlariga qo'yiladigan talablarga mos holda ularni tayyorlash uchun zarur o'quv-metodik va moddiy-texnika bazaning mavjudligi;

o'quv rejalari va dasturlariga muvofiq korxonalar va tashkilotlarda magistratura tinglovchilarining amaliyotlari, stajirovkasi va tadqiqot ishining tajriba-sinov qismlarini bajarishi uchun ushbu korxonalar va tashkilotlar bilan Oliy maktab (bo'limlar, kafedralar) o'rtasida tuzilgan shartnomalar hamda kelishuvlarning mavjudligi;

magistratura tinglovchilarini tayyorlash jarayoniga O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi ilmiy muassasalari, tarmoq ilmiy-izlanuvchilik va loyiha muassasalarining yetakchi olimlari, shuningdek xorijiy olimlar, yuqori malakali, tajribali mutaxassislarining soatbay asosida jalb etilganligi.

12. Magistratura tinglovchisining o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot, pedagogik ishlari, amaliyot, stajirovkani o'tashi, magistrlik bitiruv ishlarini tayyorlash bo'yicha faoliyati ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq magistratura tinglovchisining kalendar ish rejasiga binoan amalga oshiriladi.

13. Magistratura tinglovchisining kalendar ish rejasi mazmuni ilmiy rahbar bilan birgalikda ishlab chiqiladi va Oliy maktab direktori o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi. Magistratura tinglovchisi o'zining kalendar ish rejasi bajarilishi bo'yicha har chorakda kafedra yig'ilishida hisobot beradi.

Har o'quv semestri yakunida Oliy maktab yig'ilishida tegishli kafedra mudirlari magistratura tinglovchilarining kalendar ish rejasi bajarilishi yuzasidan hisobot beradi.

14. Oliy maktabda o'quv jarayoni davlat ta'lim standartlariga, zamonaviy xalqaro ta'lim standartlari va talablariga muvofiq ishlab chiqilgan malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlari asosida, shuningdek, o'qitishning zamonaviy shakllari va usullaridan, ilg'or pedagogika, axborot-kommunikatsiya hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda kredit-modul tizimi shaklida amalga oshiriladi.

Kredit-modul tizimini joriy etishning tashkiliy masalalariga oid ma'lumotlar, jumladan, ta'lim dasturi, fanlar katalogi, akademik mobillikni ta'minlash, kreditlarni tan olish va ko'chirib o'tkazishga taalluqli hujjatlar hamda diplom va ilovasining shakllari, shuningdek, akademik mobillik davrida tinglovchilarning bilim darajasini aniqlash bo'yicha ko'rsatkichlar va boshqa zarur hujjatlar oliy ta'lim bo'yicha vakolatli davlat organlari hamda Oliy maktab tomonidan qabul qilingan namunalar bo'yicha yuritiladi.

15. Barcha ta'lim shakli, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarida o'quv jarayonlari kredit-modul tizimi asosida tashkil etilib, oliy ta'lim bo'yicha vakolatli davlat organlari hamda Oliy maktab tomonidan qabul qilingan o'quv-me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Uning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga muvofiq tinglovchilarda tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

tinglovchilar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashda davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va shaffoflikni ta'minlash;

ta'lim dasturining tinglovchilar tomonidan tizimli ravishda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

tinglovchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurs manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

tinglovchi bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini o'z vaqtida e'lon qilish;

tinglovchilarning o'quv rejasini doirasida kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;

o'quv jarayonini, tinglovchilar bilimini baholash va davomatlarini elektron shaklda amalga oshirishga sharoit yaratish.

16. Har o'quv yili uchun ta'lim dasturi tuzilmasi bir yoki bir nechta modullardan iborat ta'lim elementlaridan tashkil topgan bo'lib, Oliy maktab Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Ta'lim dasturi auditoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim, malaka amaliyoti, ilmiy amaliyot (stajirovka), pedagogik amaliyot va boshqa ta'lim elementlaridan iborat bo'lishi mumkin.

17. Tinglovchilarning ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi hamda talab qilingan malakaga ega bo'lishi uchun talablar aniq belgilanadi. O'zlashtirish qoidalari tanlangan ta'lim dasturi bo'yicha o'qitishning turli bosqichlari uchun belgilangan kreditlar miqdorida ifodalanadi.

18. Magistratura mutaxassisliklarida tinglovchi bir o'quv yilida kamida 60 kredit to'plashi belgilanadi. Semestrlar davomida tinglovchi tomonidan to'planishi lozim bo'lgan kreditlar miqdori

o'quv rejasida ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish natijalarini ichiga oladi. Majburiy va tanlov fanlari tarkibi va ularni o'rganishga ajratiladigan kreditlar miqdori Oliy maktab tomonidan belgilanadi.

19. Tinglovchi magistraturada o'qish muddati 1 yil bo'lganida kamida 60 kredit, o'qish muddati 2 yil bo'lganida 120 kredit to'plashi talab etiladi.

20. Kreditlar dasturda belgilangan talablarga muvofiq ta'lim olish natijalariga erishilganda o'zlashtirilgan hisoblanadi. Agar tinglovchi ta'lim olish natijalariga erisha olmasa, ya'ni ta'lim elementlarini o'zlashtirmasa kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

21. Kredit-modul tizimida 1 kredit 30 akademik soatlik o'quv yuklamasiga teng, ya'ni tinglovchi muayyan fandan tegishli kreditlarni to'plashi uchun ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini o'zlashtirishi zarur.

22. O'quv tadbirlarida barcha turdagi auditoriya mashg'ulotlari, amaliyot va mustaqil ishlarning tashkil etilishi va nazorat turlari nazarda tutiladi. Nazoratlar ta'lim oluvchilarning o'quv rejasidagi tegishli fanlar bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishini va ularning natijalarini baholashni nazarda tutadi.

23. Tinglovchilar bilimi ta'lim dasturi doirasida o'qitish shaklidan qat'i nazar, Oliy maktab tomonidan ishlab chiqilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan mezonlar asosida baholanadi. O'quv dasturida (sillabusda) belgilangan baholash turlari hamda ijobiy baholar doirasida baholangan tinglovchilarga kreditlar beriladi. Tinglovchi belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda, kreditlar berilmaydi.

24. Oliy maktabda tinglovchilar bilimini nazorat qilish joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Nazorat turlari va ularni tashkil etish, tinglovchilar bilimini baholash hamda baholash natijalarini qayd qilish Oliy maktabning tegishli o'quv-me'yoriy hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

25. Bir fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan tinglovchi ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi. Yakuniy nazorat turiga kiritilmagan yoki kirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha qoniqarsiz baho olgan talaba ham akademik qarzdor hisoblanadi. Akademik qarzdor talabalar belgilangan vaqt mobaynida tegishli fanlardan o'zlashtirilmagan kreditlar miqdoriga mos ravishda to'lov-kontrakt miqdoridan kelib chiqqan holda to'lovni amalga oshirgandan so'ng o'zlashtirilmagan fanlarni o'z hisobidan qayta o'qish huquqiga ega bo'ladi.

26. Muayyan fanlardan uzrli sabablar bilan mashg'ulotlarda ishtirok eta olmagan (yoki yakuniy nazoratni topshira olmagan) tinglovchilarga Oliy maktabning tegishli ichki me'yoriy hujjatlari asosida fanni qayta o'qish (yoki yakuniy nazoratni topshirish) huquqi beriladi.

27. Har o'quv yilining oxirida tinglovchilar GPA (o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi) ko'rsatkichi asosida bosqichdan-bosqichga o'tkaziladi. GPA o'tish balli tegishli me'yorlar chegarasida Oliy maktab Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi. GPA ballini to'play olmagan tinglovchi qayta o'qish uchun tegishli kursda qoldiriladi.

28. Tinglovchi amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida o'qishni qayta tiklash va ko'chirish huquqiga ega. Tinglovchi tomonidan chetlashtirilgunga qadar o'zlashtirgan kreditlar miqdori Oliy maktab tomonidan to'liq hajmda hisobga olinadi.

5-bob. Magistraturada pedagogik faoliyatga jalb etiladigan professor-o'qituvchilar

29. Magistraturada pedagogik faoliyatga jalb etiladigan o'qituvchi ta'lim jarayoni doirasida: hamma turdagi o'quv mashg'ulotlarini yuqori darajada o'tadi; o'quv, ilmiy va o'quv-metodik ishlarni rejalashtiradi, tashkil etadi va nazorat qiladi; ilmiy-tadqiqot ishlariga va magistratura tinglovchilarining magistrlik bitiruv ishlarini tayyorlash jarayoniga rahbarlik qiladi; kafedra ixtisosligi bo'yicha ilmiy, ilmiy-tadqiqot seminarlarini tashkil etadi va ularda ishtirok etadi;

tinglovchilar ilmiy seminarlarini boshqaradi; magistraturaning tegishli mutaxassisligi bo'yicha o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqadi; kafedra ilmiy tadqiqotlari yo'nalishlari doirasida tashkil etiladigan yig'ilishlar va konferensiyalarda, shu jumladan xalqaro konferensiyalarda ishtirok etadi;

magistratura tinglovchilarining mustaqil ishlarini tashkil etadi va rejalashtiradi;
magistratura tinglovchilari uchun o'quv adabiyotlarini ishlab chiqish va nashrga tayyorlashda ishtirok etadi

30. Magistraturada pedagogik faoliyatga jalb etiladigan o'qituvchilarga qo'yiladigan malaka talablari:

fanni yuqori darajada bilish hamda uning nazariy asoslarini va muhim yutuqlarga erishish mumkin bo'lgan yo'llarni ko'ra bilish uquviga ega bo'lish;

ilmiy muammolarni ishlab chiqa olish, tadqiqotlar o'tkaza olish va ularning natijalari bo'yicha chop etilgan ilmiy ishlarga ega bo'lish;

magistratura tinglovchilarining individual xususiyatlari, shaxsiy sifatleri va magistrlik bitiruv ishlari maqsadlarini hisobga olgan holda pedagogik faoliyat yo'nalishlarini belgilash qobiliyatiga ega bo'lish;

magistratura tinglovchilarining bilim va malakalarni egallab olishga imkoniyat beradigan innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashga tayyor bo'lish;

pedagogik holatlar tahlili asosida pedagogik vazifalarni shakllantirish va ularni hal etishning maqbul yechimlarini topish;

magistratura tinglovchilarining kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion kurslar loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lish;

ma'lumotlarni tizimlashtirish va izlash orqali o'z bilimini takomillashtirish uchun doimiy o'rganish, ma'lumotlarni elektron qayta ishlashda axborot-kommunikatsiya va multimediya texnologiyalaridan foydalanish mahoratiga ega bo'lish.

31. Magistraturada pedagogik faoliyat yuritishga barcha o'qitiladigan fanlar bo'yicha (chet tillari bundan mustasno) fan doktori yoki nomzodi, falsafa doktori ilmiy darajasiga, professor, dotsent ilmiy unvonlariga, shuningdek, boshqa ilmiy darajaga ega bo'lgan, shu jumladan, vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari hamda tijorat banklarining markaziy apparatidagi ilmiy darajaga ega bo'lgan (fan nomzodlari, PhD, DSc yoki ularga tenglashtirilgan) hamda xorijiy oliy ta'lim muassasalarining magistrlik darajasiga (MS, MBA, MPA, iqtisodiyot, moliya, marketing menejment) ega malakali mutaxassislar Oliy maktabning o'quv jarayoniga jalb qilinishi mumkin.

6-bob. Oliy maktab magistraturasida tinglovchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish

32. Oliy maktab magistratura tinglovchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi turlari va shakllari O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari va mazkur nizom asosida belgilanadi.

33. Oliy maktabda magistratura tinglovchilarining yakuniy davlat attestatsiyasining (magistrlik bitiruv ishlari) quyidagi turlari o'tkazilishi mumkin:

muayyan faoliyat turi bilan bog'liq loyihalar himoyasi;

keys-stadi himoyasi;

magistrlik dissertatsiyasi himoyasi;

davlat imtihoni va boshqalar.

34. Muayyan faoliyat turi bilan bog'liq loyihalar, keys-stadi, davlat imtihoni va boshqalar magistratura bosqichi bitiruvchilarining tegishli mutaxassislikka (sohaga) oid yakuniy bilimi, ko'nikma va malaka darajasini belgilab beradi. Ularning tuzilishi va mazmuniga qo'yiladigan talablar, baholash mezonlari, topshirish va himoyani o'tkazish tartibi va tamoyillari Oliy maktabning tegishli o'quvme'yoriy hujjati bilan tartibga solinadi.

35. Magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi turlari Oliy maktab Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

36. Magistratura mutaxassisliklari bo'yicha Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi tarkibi har o'quv yili uchun amaldagi tartib bo'yicha Oliy maktab direktori buyrug'i bilan tasdiqlanadi va belgilangan o'quv jarayonlari jadvaliga asosan attestatsiya o'tkaziladi.

37. Bitiruvchilarga Yakuniy davlat attestatsiyasining qarori bilan tegishli mutaxassislik bo'yicha "magistr" akademik darajasi beriladi.

7-bob. Mavzuni tanlash va ilmiy rahbarni tayinlash

38. Magistrlik attestatsiyasi turlari bo'yicha mavzular Oliy maktab kafedralarining professor-o'qituvchilari tarkibi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy muassasalari, tarmoq ilmiy-tadqiqot va loyihalash muassasalari, yirik buyurtmachi vazirliklar, idoralar va tashkilotlar tomonidan hamda tinglovchilarning qiziqishlari asosida shakllantiriladi.

Mavzular qoidaga ko'ra, dolzarb ilmiy-tadqiqot masalalariga yoki tashkilotlarning aniq amaliy vazifalarini hal etishga bag'ishlanadi.

39. Magistrlik attestatsiyasi turlari bo'yicha ilmiy rahbarlik Oliy maktabning ilmiy daraja va unvonga ega professor-o'qituvchilari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy muassasalari va boshqa oliy ta'lim muassasalarining tegishli mutaxassislik bo'yicha ilmiy daraja va unvonga ega professor-o'qituvchilari va xodimlari, vazirlik va idoralar, korxonalar va tashkilotlarning yuqori malakali va tajribali mutaxassislari, shuningdek ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan xorijiy mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Magistratura tinglovchisiga Oliy maktabdan tashqaridan ilmiy rahbar tayinlangan taqdirda, tinglovchiga qo'shimcha ravishda tegishli kafedra professor-o'qituvchilari tarkibidan ilmiy maslahatchi tayinlanadi.

Belgilangan talablarga muvofiq, magistrlik attestatsiya turlari bo'yicha ishlar bajarilishi doirasida ilmiy rahbar bilan bir xil mas'uliyat ilmiy maslahatchiga ham yuklanadi.

40. Magistratura tinglovchisiga Oliy maktab professor-o'qituvchilari va xodimlari tarkibidan bo'lgan ilmiy rahbar va ilmiy maslahatchining magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash bo'yicha o'quv yuklamalari professor-o'qituvchilarning shaxsiy ish rejasi bilan belgilanadigan o'quv yuklamasiga kiritiladi.

Tashqaridan taklif etilgan mutaxassislarning ilmiy rahbarligi uchun o'quv yuklamasi va mehnatiga soatbay haq to'lash shartlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

41. Bir ilmiy rahbar va maslahatchiga to'g'ri keladigan tinglovchilar soni Oliy maktab Ilmiy kengashi qaroriga muvofiq belgilanadi.

42. Magistrlik attestatsiya turlari bo'yicha mavzular va ularning ilmiy rahbarlari (ilmiy maslahatchilari) birinchi semestr yakuniga qadar Oliy maktabning buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

43. Ilmiy rahbarning majburiyatlariga quyidagilar kiradi:
tadqiqot mavzusi doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalalar bo'yicha tizimli ravishda yordam berish maqsadida maslahatlar jadvalini tuzish va unga amal qilish;

tadqiqot usullarini tanlashda ishtirok etish va ularni tadqiqot ishida qo'llashda magistratura tinglovchisiga ko'maklashish;

magistratura tinglovchisining belgilangan kalendar ish rejasi bo'yicha ishlarning bajarilishini va magistrlik dissertatsiyasi (yoki biznes-loyahasini) o'z vaqtida tayyorlanishini nazorat qilish;

dastlabki himoyagacha xulosa berish.

8-bob. Attestatsiyani o'tkazish tartibi

44. Attestatsiyaga tegishli fanlarni o'zlashtirgan, belgilangan kreditlarni to'plagan hamda to'lov-kontrakt shartlarini to'liq bajargan bitiruvchilar qo'yiladi.

Bitiruvchilar o'quv yuklamalarini to'liq bajargandan so'ng attestatsiyadan o'tishi majburiy hisoblanadi.

45. Attestatsiya o'quv jarayoni jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda, Oliy maktabning direktor o'rinbosari tomonidan tasdiqlangan attestatsiya jadvali asosida o'tkaziladi.

46. Oliy maktab Ilmiy kengashining qarori bilan bitiruvchi uchun belgilangan attestatsiyaning shakli bir o'quv yili davomida o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

47. Attestatsiyada plagiatsizlik yo'l qo'yilmaydi. Bunday holat aniqlanganda, attestatsiya komissiyasi tomonidan bitiruvchiga tegishli attestatsiyadan qoniqarsiz baho qo'yiladi yoki qo'yilgan ijobiy baho bekor qilinadi.

Magistrlik dissertatsiyasi himoyadan ikki hafta oldin antiplagiat dasturi asosida tekshiriladi va plagiatsizlik yo'l qo'yilganligi aniqlansa, takroran bir marotaba qayta tekshirishdan o'tkazishga ruxsat beriladi. Ikkinchi marotaba ham plagiatsizlik holatlari bartaraf etilmagan taqdirda, attestatsiya keyingi yilga qoldiriladi.

Bunda plagiat holatlari bartaraf etilgan taqdirda, bitiruvchiga attestatsiyada qatnashishga ruxsat beriladi.

48. Attestatsiyada bitiruvchilarning bilimi, ko'nikma va malakasi Oliy maktab Ilmiy kengashi tomonidan belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi.

49. Attestatsiya natijalari attestatsiya o'tkazilgan kunning o'zida bitiruvchilarga e'lon qilinadi.

50. Attestatsiyada bitiruvchi qoniqarsiz baho bilan baholanganda bitiruvchiga diplom berilmaydi hamda attestatsiyani mazkur Nizomga muvofiq qayta topshiradi.

51. Komissiya bitiruvchilarga attestatsiyaning ijobiy natijalari asosida magistr darajasini berish haqida qaror qabul qiladi.

Komissiyaning qarorlari ochiq ovoz berish orqali majlisda ishtirok etuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan hollarda, raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

52. Attestatsiyadan o'ta olmagan yoki attestatsiyaga qo'yilmagan bitiruvchi o'qish muddati tugagandan so'ng, uning arizasiga muvofiq attestatsiyani keyingi uch yil davomida qayta topshirish huquqiga ega.

53. Attestatsiyadan keyingi uch yil davomida qayta o'ta olmagan bitiruvchiga akademik ma'lumotnoma beriladi va u belgilangan tartibda, to'lov-kontrakt asosida tegishli bitiruv kursiga o'qish uchun qayta tiklanadi.

54. Uzrli sabab bilan attestatsiyaga kelmagan bitiruvchilar Oliy maktab buyrug'i bilan komissiyaning ishi yakunlanishiga qadar boshqa muddatlarda o'tkaziladigan attestatsiyaga kiritiladi.

55. Magistratura tinglovchilari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va ularni o'qishdan chetlashtirish tegishli tartibda amaldagi qonunchilik hujjatlari va Oliy maktabning ichki me'yoriy hujjatlari asosida tartibga solinadi.

9-bob. Attestatsiyani baholash natijalari yuzasidan shikoyat qilish tartibi

56. Attestatsiya natijasi bo'yicha olgan bahosidan norozi bo'lgan bitiruvchilar arizalarini ko'rib chiqish uchun Oliy maktabning buyrug'i bilan apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi Oliy maktabning ilmiy-pedagogik kadrlari (apellyatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 40 foizigacha), shuningdek, tegishli soha bo'yicha korxonalarining (tashkilotlarning) malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim tashkilotlarining tajribali professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlari orasidan kamida 5 nafar a'zodan iborat tarkibda tuziladi.

57. Attestatsiyada qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar attestatsiya baholari e'lon qilingan kundan boshlab uch ish kuni ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga ega.

58. Apellyatsiya komissiyasi shikoyatni bir kun ichida ko'rib chiqadi hamda natijasi bo'yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

shikoyatni asosli deb hisoblash hamda uni qanoatlantirish to'g'risida;

shikoyatni asossiz deb hisoblash hamda uni qanoatlantirishni rad etish to'g'risida.

59. Apellyatsiya komissiyasi qabul qilgan qarori nusxasini shu kunning o'zida bitiruvchiga taqdim qiladi.

10-bob. Yakunlovchi qoida

60. Mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish Oliy maktab faoliyati uchun mas'ul bo'lgan Bosh vazir o'rinbosari bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

61. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

62. Ushbu Nizomdagi nizoli masalalar amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

«СОГЛАСОВАНО»
Министр высшего образования,
науки и инноваций
Республики Узбекистан
К. Шарипов

26 декабря 2025 г.

«УТВЕРЖДАЮ»
Заместитель премьер-министра
Республики Узбекистан,
Министр экономики и финансов
Ж. Кучкаров

29 декабря 2025 г.

ПОЛОЖЕНИЕ
о магистратуре Высшей школы бизнеса и предпринимательства
Глава 1. Общие положения

1. Настоящее Положение разработано в соответствии с Законом Республики Узбекистан от 23 сентября 2020 года №ЗРУ-637 "Об образовании," постановлениями Кабинета Министров от 30 декабря 2024 года №904 "О мерах по эффективной организации деятельности Высшей школы бизнеса и предпринимательства при Кабинете Министров Республики Узбекистан," от 31 декабря 2020 года №824 "О мерах по совершенствованию системы, связанной с организацией образовательного процесса в высших образовательных учреждениях," от 13 декабря 2024 года №836 "О мерах по организации итоговой государственной аттестации выпускников высших и профессиональных образовательных организаций", "Государственный образовательный стандарт высшего образования. Основные положения" и иными нормативно-правовыми актами в данной сфере, утверждены Основные правила подготовки магистров в Высшей школе бизнеса и предпринимательства при Кабинете Министров Республики Узбекистан (далее - Высшая школа).

